Maqolada tahlil qilingan ma'lumotlar asosan tijorat banklarining yillik hisobotlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda "Ahbor-Reyting" reyting agentligi ma'lumotlaridan olingan. Ilmiy tadqiqotni bajarishda statistik guruhlash, induksiya va deduksiya, ekspert baholash, qiyosiy hamda trendli tahlil usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, maqolada analitik tadqiqot sifatida bo'ylama kesim (longitudinal) tadqiqotlari metodologiyasidan foydalangan holda tahlil birligi sifatida obyekt tanlanib, ma'lumotlarni bir necha yil davomida o'rganish orqali tadqiqot muammosining o'zgarish dinamikasi tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida ta'kidlanganidek, bank aktivlari likvidlili (Challoumis, 2019) asosan aktivlarning sifati va risk darajasiga uzviy bog'liqdir. Bank aktivlari likvidlili (Challoumis, 2019) — bu bank tomonidan joriy va kelajakdagi majburiyatlari hamda to'lovlarini, shuningdek kredit bo'yicha mijozlarning talablarini o'z vaqtida bajarish maqsadida kerakli vaqtda hamda miqdorda, zarar ko'rmasdan aktivlarni tezda pul mablag'iga aylantira olish qobiliyatidir.

Bank aktivlari likvidlili (Challoumis, 2019) shu orqali esa bank tizimi likvidlili (Challoumis, 2019) ta'minlashda Markaziy banklar muhim rol o'ynaydi. Ular o'z monetar siyosat instrumentlari orqali banklarning likvidlili (Challoumis, 2019) ta'sir ko'rsatadi, tijorat banklari uchun likvidlilik me'yorlarini belgilaydi va ularning bajarilishini monitoring qiladi.

Endi O'zbekiston bank tizimining asosiy ko'rsatkichlarini va ushbu ko'rsatkichlarning bank aktivlari likvidlili (Challoumis, 2019) ta'sirini, ya'ni tijorat banklari aktivlari sifati, o'z mablag'lari va depozitlarning tijorat banklari likvidlili (Challoumis, 2019) ta'sirini o'rganib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatining takomillashishi, xususan kreditlash faoliyatining kengayishi o'z navbatida kredit qo'yilmalari dinamikasining oshishiga olib keladi. Tijorat banklari faoliyatida kreditlash amaliyotining tutgan o'rnini baholashda bank aktivlari va ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, xalqaro bank amaliyotida bank aktivlari mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan bir necha barobar yuqori ulushni tashkil etadi. Xalqaro bank amaliyotidan farqli o'laroq, respublikamiz bank tizimi aktivlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi nisbatan past bo'lsa-da, o'zining taraqqiyot strategiyasiga ega bo'lgan yosh bank tizimimiz uchun so'nggi yillarda o'sish trendining kuzatilayotgani bank tizimi aktivlarining mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi (1-jadval).



1-jadval. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarinig YAIMdagi ulushi [14] (mlrd.so'mda)

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
YAIM	249 136	424 728	529 391	602 193	734 187
Bank aktivlari	166 632	178 340	231 260	272 727	444 922
YAIMga nisbatan foiz hisobida	56,8	41,9	40,0	40,0	60,0

Mazkur yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bank aktivlari yildan-yilga o'sish tendensiyasiga ega. Ya'ni, 2017-yilda bank aktivlari 249 136 mlrd so'm yoki 56,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-yilda 60,0 foizga yetgan.

Tijorat banklari aktivlarining mamlakat YAIMdagi ulushiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2020–2024-yillar mobaynida ushbu ko'rsatkichda muntazam o'sish tendensiyasi deyarli kuzatilmagan. Bu holat hukumat tomonidan olib borilayotgan tub islohotlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan qator farmon hamda qarorlar mamlakatimizda banklar tomonidan real sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi rolini yanada oshirishga zamin yaratganini ko'rsatadi.

Bank aktivlarining diversifikatsiyasi mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan "Asakabank" AJ va AT "Aloqabank" misolida quyidagicha tahlil qilinadi (2-jadval):

2-jadval. "Asakabank" AJ ning aktivlari diversifikatsiyasi tahlili, mlrd.so'm [15]

T/r	Ko'rsatkichlar		2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
1.	Jami aktivlar	summasi	24 273	30 355	34 698	45 518	50 804
		ulushi	100%	100%	100%	100%	100%
	shundan,						
1.1.	Naqd pullar va vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar	summasi	5175	2614	6528	6940	7951
		ulushi	21,3%	8,6%	18,8%	15,2%	15,7%
3.	Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar	summasi	266	328	597	1 295	1 499
		ulushi	1,1%	1,1%	1,7%	2,8%	3,0%
4.	Kredit va lizing operatsiyalari summasi	summasi	15 598	24 420	25 552	33 026	36 805
		ulushi	64,3%	80,4%	73,6%	72,6%	72,4%
5.	Hisoblangan lekin undirilmagan foizlar	summasi	240	584	637	1073	1427
		ulushi	1,0%	1,9%	1,8%	2,4%	2,8%
6.	Moliyaviy instrumentlar bo'yicha mijozlarning majburiyatlari	summasi	2466	1861	240	1403	601
		ulushi	10,2%	6,1%	0,7%	3,1%	1,2%
7.	Asosiy vositalar	summasi	125	146	202	869	1297
		ulushi	0,5%	0,5%	0,6%	1,9%	2,6%
8.	Kredit va lizinglarni qoplash uchun olingan va boshqa mulklar	summasi	165	72	158	388	508
		ulushi	0,7%	0,2%	0,5%	0,9%	1,0%
9.	Boshqa aktivlar	summasi	238	330	784	524	716
		ulushi	1,0%	1,1%	2,3%	1,2%	1,4%

Yuqoridagi jadval tahliliga ko'ra, "Asakabank" AJ aktivlarining asosiy qismini yuqori risk va yuqori daromad manbaiga ega bo'lgan kredit qo'yilmalari tashkil etadi. 2020-yil yakunlari bo'yicha jami aktivlar tarkibida kredit qo'yilmalari 64,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 80,4 foizga yetib, riskli aktivlar ulushining keskin oshishiga sabab bo'lgan. Oxirgi uch yil davomida esa bu ko'rsatkich 72 foiz atrofida saqlanib qolgan.

Kredit va lizinglar uchun hisoblangan, biroq undirilmagan foizlar hamda kredit va lizinglarni qoplash maqsadida bank balansiga olingan mulklar jami aktivlardagi ulushining oshishiga olib kelgan. Bu holat bankning moliyaviy barqarorligiga va likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bunday vaziyat kredit portfeli sifatining pasayib



borayotgani, kredit va lizinglarga ortiqcha imtiyozli davr berilgani hamda muammoli kreditlar bo'yicha olingan mulklarning realizatsiya qilinmasligi bilan izohlanadi.

Bankning naqd pullari va vakillik hisobvaraqlaridagi pul mablag'larining jami aktivlardagi ulushi 21,3 foizdan 15,7 foizga tushgan. Bunga asosiy sabab sifatida bank aktivlari tarkibida hisoblangan, biroq undirilmagan foizlarning oshishi, bank balansidagi asosiy vositalar hajmining hamda kreditlar evaziga olingan mulklar miqdorining ko'payishi likvid aktivlar hajmining kamayishiga olib kelgani ko'rsatiladi (3-jadval).

3-jadval. AT "Aloqabank" ning aktivlari diversifikatsiyasi tahlili, mlrd.so'm [16]

T/r	Ko'rsatkichlar		2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
1.	Jami aktivlar	summasi	2 792	5 846	7 341	8 108	12 638
		ulushi	100%	100%	100%	100%	100%
	shundan,						
1.1.	Naqd pullar va vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar	summasi	988	946	1134	1074	2415
		ulushi	35,4%	16,2%	15,4%	13,2%	19,1%
3.	Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar	summasi	10	24	89	411	509
		ulushi	0,4%	0,4%	1,2%	5,1%	4,0%
4.	Kredit va lizing operatsiyalari summasi	summasi	1627	4 739	5 593	5 697	7 653
		ulushi	58,3%	81,1%	76,2%	70,3%	60,6%
5.	Hisoblangan lekin undirilmagan foizlar	summasi	3	10	63	133	198
		ulushi	0,1%	0,2%	0,9%	1,6%	1,6%
6.	Moliyaviy instrument bo'yicha mijozlarning majburiyatlari	summasi	0	0	0	9	533
		ulushi	0,0%	0,0%	0,0%	0,1%	4,2%
7.	Asosiy vositalar	summasi	63	83	184	462	812
		ulushi	2,3%	1,4%	2,5%	5,7%	6,4%
8.	Kredit va lizinglarni qoplash uchun olingan va boshqa mulklar	summasi	0	0	17	34	52
		ulushi	0,0%	0,0%	0,2%	0,4%	0,4%
9.	Boshqa aktivlar	summasi	101	44	261	288	466
		ulushi	3,6%	0,8%	3,6%	3,6%	3,7%

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, AT "Aloqabank" aktivlarining asosiy qismini yuqori risk va yuqori daromad manbaiga ega bo'lgan kredit qo'yilmalari tashkil etadi. 2020-yil yakunlari bo'yicha jami aktivlar tarkibida kredit qo'yilmalari 58,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 81,1 foizga yetib, riskli aktivlar ulushining keskin oshishiga sabab bo'lgan. 2022-yilda bu ko'rsatkich 76,2 foizga, 2023-yilda 70,3 foizga va 2024-yilda 60,6 foizga (normal holatga) tushgan.

Kredit va lizinglar uchun hisoblangan, biroq undirilmagan foizlar ulushi 16 martaga, asosiy vositalar ulushi esa 2,5 barobarga oshgan. Bankning naqd pullari va vakillik hisobvaraqlaridagi pul mablag'larining jami aktivlardagi ulushi 35,4 foizdan 19,1 foizga kamaygan. Bunga asosiy sabab sifatida bank aktivlari tarkibida hisoblangan, biroq undirilmagan foizlarning ko'payishi, bank balansidagi asosiy vositalar hajmining oshishi hamda moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlarning yuzaga kelishi kabi omillar ko'rsatiladi (4-jadval).

4-jadval. "AT "Aloqabank"ning aktivlari, kreditlari va daromadlari dinamikasi tahlili, mlrd.so'm" [16].

T/r	Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
1.	Jami aktivlar summasi, mlrd. so'm	2 792	5 846	7 341	8 108	12 638
2.	Jami kreditlar summasi, mlrd. so'm	1 627	4 739	5 593	5 697	7 653
3.	Kreditlarning aktivlar hajmidagi salmog'i, %	58%	81%	76%	70%	61%
4.	Yalpi daromad, mlrd. so'm	367	767	1 345	1 480	1 633



5.	Kreditlardan olingan foizli daromadlar, mlrd. so'm	159	473	827	809	923
6.	Kreditlardan olingan foizli daromadlarning yalpi daromad hajmidagi salmog'i, foizda	43%	62%	61%	55%	57%
7.	Kreditlarning yillik o'sish sur'ati, foizda	63%	191%	18%	2%	34%
8.	Kreditlardan olingan foizli daromadlarni yillik o'sish sur'ati, foizda	59%	197%	75%	-2%	14%
9.	Kredit portfelining o'rtacha yillik foiz stavkasi	15,5	15,7	16,4	14,9	15,2
10.	1 so'mlik kreditga to'g'ri keladigan bank daromadi	0,22	0,16	0,24	0,26	0,21
11.	Kredit portfelining rentabelligi	4,3%	2,9%	3,5%	3,0%	1,4%

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, AT "Aloqabank" aktivlari tarkibida kredit qo'yilmalari ulushi 2020-yilda 58 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda maksimal darajaga — 81 foizga yetgan. Keyingi uch yil davomida bu ko'rsatkich kamayib, aktivlardagi ulushi 61 foizni tashkil qilgan. 2021-yilda bank aktivlari tarkibida kredit portfelining bunday darajada shakllanishi, albatta, yuqori risklarni keltirib chiqargan hamda bankning likvidlilik ko'rsatkichlarining pasayishiga olib kelgan.

Yalpi daromadda kreditlardan olingan foizli daromad ulushi 2020-yilda 43 foizni, 2021-yilda 62 foizni, 2019-yilda 61 foizni, 2022-yilda 55 foizni va 2023-yilda 57 foizni tashkil etgan. Ya'ni, bankning asosiy daromad manbai kreditlash operatsiyalari bo'lgan. Shu bois daromad manbalarini diversifikatsiya qilish maqsadida bank aktivlari va xizmatlarini qayta ko'rib, ularni qayta shakllantirish lozim.

Kredit portfelining yillik o'sishi 2023-yilda normal holatga kelgan. Regulyator talablari va riskli aktivlarni tartibga solish maqsadida 2020-yildagi keskin o'sish, keyingi yillarda kreditlash hajmlarining pasayishiga olib kelgan. O'z navbatida, kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning yillik o'sish sur'atlari kamaygan.

Ajratilgan kreditlarning o'rtacha foiz stavkasi 2020–2024-yillarda oshib borgan: mos ravishda 15,5; 15,7 va 16,4 foizni tashkil etgan. Oxirgi ikki yilda esa ajratilgan kreditlarning o'rtacha foiz stavkasi pasayib, 2023-yilda 15,2 foizni, 2024-yilda esa 14,9 foizni tashkil etgan. Bu, asosan, davlat dasturlari doirasida ajratilgan loyihalar va xorijiy valyutada berilgan kreditlar hisobiga yuz bergan. Umuman olganda, bank kreditlarining o'rtacha foiz stavkalarida sezilarli darajada tebranishlar kuzatilmagan.

Banklarda kreditlash sur'atlarini barqaror saqlash va muammoli aktivlar riskini kamaytirish maqsadida moliyalashtirilayotgan loyihalarda tashabbuskorlarning kamida 30 foiz o'z mablag'i bilan ishtirok etishi taklif etiladi (5-jadval).

5-jadval. "Asakabank" AJning muammoli kreditlari va ular bo'yicha yaratilgan zaxiralar tahlili, mlrd.so'm [15]

T/r	Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
1.	Jami kreditlar summasi, mlrd. so'm	15 598	24 420	25 552	33 027	36 805
2.	Muammoli kreditlar summasi, mlrd.so'm, shundan	149	181	408	682	753
3.	Muammoli kreditlar jami kreditlardagi salmog'i, foizda	1,0%	0,7%	1,6%	2,1%	2,0%
4.	Hisobot yilida kreditlar uchun tashkil qilingan zahira summasi, mlrd.so'm	185	243	820	1 234	1 326

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida "Asakabank" AJ kredit qo'yilmalari qoldig'i 2,3 martaga oshgan. Shu bilan birga, jami kredit portfelida muammoli kreditlar ulushi ham ortgan, ya'ni yildan-yilga zaxira summasi oshib borgan. Kredit portfeli tarkibida muammoli kreditlar salmog'ining ortib borishi esa o'z navbatida aktivlar samaradorligining pasayishiga olib keladi. Shu sababli "Asakabank" AJ kredit portfelini chuqur tahlil qilishi, har bir qarzdorning krediti bo'yicha monitoringni kuchaytirishi va aniqlangan muammolarni qisqa muddatda bartaraf etish choralarini ko'rishi lozim (6-jadval).



6-jadval. AT "Aloqabank" ning moliyaviy natijalari tahlili, mlrd.so'm [16]

T/r	Ko'rsatkichlar		2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
1.	Foizli daromadlar		218	620	1152	1185	1206
2.	Foizli xarajatlar		128	356	777	819	798
3.	Aktivlar bo'yicha xazira tashkil qilingunga qadar sof foizli daromadlar		90	264	375	366	408
4.	Aktivlar bo'yicha tashkil qilingan xazira summasi		5	3	8	14	121
5.	Sof foizli daromadlar		85	261	367	352	287
6.	Foizsiz daromadlar		140	147	193	295	427
7.	Foizsiz xarajatlar		23	47	68	170	212
8.	Operatsion xarajatlarga qadar sof daromad		202	361	492	477	502
9.	Operatsion xarajatlar		118	189	245	265	362
10.	Soliq to'langunga qadar foyda		84	172	247	212	140
11.	Foyda solig'i		14	35	47	42	33
12.	Olingan sof foyda		70	137	200	170	107
13.	Sof foydaning yillik o'sishi	summasi	19	67	63	-30	-63
		foizda	37%	96%	46%	-15%	-37%

Yuqoridagi 6-jadval tahliliga ko'ra, 2020–2024-yillarda bankning foizli daromadlari barqaror oshib borgan. 2023–2024-yillarda AT "Aloqabank"ning foizli daromadlari o'sishi sezilarli darajada kamaygan. Foizli xarajatlar ham shunga mutanosib ravishda oshgan. Faqat 2024-yilda foizsiz xarajatlar o'sish darajasini pasaytirishga erishilgan va foizli xarajatlar iqtisod qilingan.

Aktivlar bo'yicha tashkil qilingan xazira summasi 2024-yilda 8,5 barobarga oshib, 121 mlrd so'mni tashkil qilgan. Foizli xarajatlarning iqtisod qilinishi natijasida tahlil qilingan davrlarning barchasida bank sof foizli daromad olishga erishgan.

AT "Aloqabank"ning foizsiz daromadlari barqaror o'sishi ta'minlangan, foizsiz xarajatlar esa mos ravishda o'zgarib borgan. Bankning sof foydasi esa nobarqaror bo'lgan. 2023-yilda bankning sof foydasi 15 foizga, 2024-yilda esa 37 foizga kamaygan. Bu holat, albatta, bank aktivlarining samaradorligi pasayganligi, ko'rsatilayotgan xizmat turlarining qisqarganligi yoki bank xarajatlarning oshganligi bilan izohlanadi. Natijada bank rentabelligi pasaygan (7-jadval).

7-jadval. AT "Aloqabank" majburiyatlarini to'lash muddatlari bo'yicha tahlili, mlrd.so'm [16]


T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
1.	Jami majburiyatlar	summasi	2 393	4 684	5 945	6 539	10 964
	shundan,						
1.1.	Talab qilib olinguncha, majburiyatlar	summasi	1360	1145	1142	1591	2248
		ulushi	57%	24%	19%	24%	21%
1.2.	1-30 kungacha qaytadigan majburiyatlar	summasi	367	279	239	411	793
		ulushi	15%	6%	4%	6%	7%
1.3.	31-180 kungacha qaytadigan majburiyatlar	summasi	382	428	1070	981	2457
		ulushi	16%	9%	18%	15%	22%
1.4.	181-365 kungacha qaytadigan majburiyatlar	summasi	40	185	636	606	1392
		ulushi	2%	4%	11%	9%	13%
1.5.	365 kundan keyin qaytadigan majburiyatlar	summasi	244	2647	2858	2950	4074
		ulushi	10%	57%	48%	45%	37%



7-jadval ma'lumotlariga ko'ra, AT "Aloqabank"ning 2024-yildagi jalb qilingan mablag'larini qaytarish muddatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 6 oygacha qaytariladigan majburiyatlar ulushi 50 foizni tashkil qilgan. 2020-yilda bu ko'rsatkich 88 foiz bo'lgan. Besh yil davomida 37 foizga kamayib, ijobiy tomonga o'zgargan bo'lsa-da, 6 oy ichida qaytariladigan majburiyatlar ulushi hanuz yuqori darajada qolmoqda.

Bir yildan ortiq muddatda qaytariladigan majburiyatlar ulushi 10 foizdan 37 foizga oshib, ijobiy natijaga erishilgan. Biroq, bankning kredit portfelining aktivlardagi ulushiga nisbatan bu ko'rsatkich ancha past. AT "Aloqabank" majburiyatlarini qaytarish muddatlari tahliliga asoslanib aytish mumkinki, bankning uzoq muddatli resurslari ulushi kam va uzoq muddatli kreditlash hajmini oshirib borish uchun barqaror resurs bazasi yetarli emas.

Bank aktivlari tarkibida asosiy ulushni kredit qo'yilmalari tashkil etadi. Tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, birinchi navbatda, banklarning asosiy daromadlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda bank kreditlarining o'ri katta. Mamlakat YAImida bank kreditlari ulushining ortib borishi esa iqtisodiyot tarmoqlarining resurs bilan ta'minlanish sur'atlarining jadal o'sishini anglatadi (1-rasm).



1-rasm. Bank tizimida likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR), foizda [2]

Bank tizimida likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (Liquidity Coverage Ratio, LCR) Markaziy bank tomonidan belgilangan me'yoriy minimal talablardan ancha yuqori darajada shakllangani, banklarning qisqa muddatli likvidlik shoklariga samarali javob berish salohiyatini tasdiqlaydi. 2024-yil I choragida iqtisodiy faollik vaqtincha pasaygan sharoitda ham Markaziy bankning o'z vaqtida va yetarli miqdorda likvidlik ta'minoti banklarda LCR darajasining barqarorligini saqlab qoldi. 2024-yil boshida LCR hisoblash metodologiyasining takomillashtirilishi xorijiy valyutadagi sof xarajatlarni yanada aniq baholash imkonini yaratdi. Ushbu metodik yangilanishlar yuqori likvidli aktivlar va xorijiy valyutadagi aktivlarga nisbatan talablarni yanada uyg'unlashtirdi hamda bank tizimida likvidlik boshqaruvining sifatini oshirishga xizmat qildi. Kutilishicha, kelgusi davrda mazkur yondashuv banklarning xorijiy valyutadagi likvidlik salohiyatini mustahkamlash hamda qisqa muddatli moliyaviy xavflarga barqaror javob berish imkoniyatlarini kengaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bank aktivlari likvidligi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mamlakat bank tizimining barcha pul majburiyatlarini o'z vaqtida, to'liq va uzluksiz bajarilishini ta'minlaydi hamda uning ishonchligi va iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlariga



muvofig mablag'larning yetarililigi belgilaydi. Bank aktivlari likvidligini oshirish va uni ta'minlashda Markaziy bank muhim rol o'ynaydi. Markaziy bank monetar siyosat instrumentlari orqali bank aktivlari likvidligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, tijorat banklari uchun o'rnatilgan iqtisodiy normativlarning bajarilishini ta'minlash orqali bank aktivlari likvidligini nazorat qilib boradi. Bank tizimi ishtirokchilari bo'lgan har bir tijorat banki Markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy normativ ko'rsatkichlarni bajarish orqali bank aktivlari likvidligini ta'minlashda o'z hissasini qo'shadi.

Yuqoridagi tahlillar va ma'lumotlar asosida bank aktivlari likvidligini oshirish yo'nalishlari quyidagilar:

Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi orqali bank aktivlari likvidligini boshqarishi lozim. Bunda, bank aktivlari likvidligi muammosi yuzaga kelganda, qayta moliyalash stavkasini oshirish orqali tijorat banklari kreditlari va pul massasining o'sish sur'atini mo'tadillashtirishga harakat qilinadi. Agar bank aktivlari likvidli aktivlari profitsiti kuzatilsa, qayta moliyalash stavkasini pasaytirish orqali aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarni kredit olishga rag'batlantirish, shu orqali pul massasi va bank tizimi likvidligiga ta'sir ko'rsatish mumkin.

Qayta moliyalash stavkasining yuqoriligi milliy valyutani jamg'arish vositasi sifatida ishlatishga olib keladi. Bu esa tijorat banklariga aholining qo'lidagi bo'sh mablag'larni bank depozitlariga jalb qilish imkonini beradi. Bunda ushbu mablag'larni tijorat banklarining uzoq muddatli depozitlariga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Bu holat bank tizimi likvidligini oshirishga xizmat qiladi.

Markaziy bank tijorat banklariga o'rnatilgan iqtisodiy normativ ko'rsatkichlarning bajarilishini ta'minlash orqali tijorat banklari aktivlari likvidligini, shu orqali esa bank tizimi likvidligini muntazam nazorat qilib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сон «2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида»ги Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг Молиявий барқарорлик шарҳи 2022 йил I ярим йиллик. www.cbu.uz
3. Basel Committee on Banking Supervision. (2021). Basel III: International framework for liquidity risk measurement, standards and monitoring. Switzerland: Bank for International Settlements
4. Yensu Joseph, Hadrat M. Yusif, Emmanuel Tetteh, George Asumadu, Daniel A. Atuilik. Main Determinants of Banks' Stability: Evidence from Commercial Banks in Ghana. Journal of Finance and Economics. 2021. Vol. 9. no. 2. P. 42-52.
5. Farag, M., Harland, D. & Nixon, D. (2013). Bank capital and liquidity. Bank of England Quarterly Bulletin, 53(3), 201-215.
6. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии и финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – с. 648.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022й., 06/22/60/0082 - сон.
8. Прокофьева Е.Н. Ликвидность банковского сектора России в условиях нестабильности: тенденции формирования и последствия для экономики // Вестник Северо-Осетинского государственного университета им. К. Л. Хетагурова. 2019. № 2. С. 130-136.
9. Абдуллазanova К.З., Калачева Е.А. Анализ состояния ликвидности банковского сектора России // Научные исследования XXI века. 2020. № 1(3). С. 112-118.
10. Mukherjee, T. and Pana, E. (2018). The distribution of the Capital Purchase Program funds: Evidence from bank internal capital markets. Financial Markets, Institutions & Instruments, 27(4), pp.125–143.
11. Bakhridin Berdiyarov (2021). Uzbekistan in Banking Practice: Opportunities to Use Foreign Experience to Ensure Liquidity and Solvency of Commercial Banks // ICFNDS 2021: The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. December 2021, pp 378–392 <https://doi.org/10.1145/3508072.3508141>.
12. Challoumis, C. (2019). Theoretical Definition of the Velocities of Escaped Savings With Than of Financial Liquidity. SSRN Electronic Journal
13. Абдуллаева Ш. (2003) "Банк иши", Тошкент, "Молия институти", Ўқув-қўлланма, 312 бет.
14. Ўзбекистон Республикаси Марказий банкнинг маълумотлари асосида ҳисобланди, www.cbu.uz
15. АЖ "Асакабанк"нинг жамланма баланс ҳисоботлари.
16. АТ "Алоқабанк"нинг жамланма баланс ҳисоботлари.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
